



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

## **ANALYSIS OF DEVELOPMENT TRENDS AND EXPORT STRUCTURE OF UZBEKISTAN'S ICT SERVICES MARKET**

**Shermatov Sherzod Khotamovich**

*Minister of Digital Technologies of the Republic of Uzbekistan*

*sherzod.shermatov@gmail.com*

**Abstract:** Issues regarding the development trends of Uzbekistan's ICT services market and the analysis of export structure are extensively covered. It provides an in-depth analysis of the theoretical foundations of service export, its impact on economic growth, and development trends in the digital economy. The study also examines the development of the ICT services market in Uzbekistan, the structure of exports, and their impact on economic growth. The current state of ICT service exports was assessed, and factors hindering development were identified. Practical proposals have also been developed to increase export potential in the fields of IT services, startups, human resources, outsourcing, GovTech, and SaaS.

**Keywords:** *Export of IT services, ICT services, GovTech, SaaS, IT market, Export geography, electronic services, trends.*

## **O‘ZBEKISTONNING AKT XIZMATLARI BOZORI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA EKSPORT TARKIBI TAHLILI**

**Shermatov Sherzod Xotamovich**

*O‘zbekiston Respublikasi raqamli texnologiyalar vaziri*

[sherzod.shermatov@gmail.com](mailto:sherzod.shermatov@gmail.com)

**Annotatsiya:** O‘zbekistonning AKT xizmatlari bozori rivojlanish tendensiyalari va eksport tarkibi tahlili masalalari keng yoritilgan. Unda xizmatlar eksportining nazariy asoslari, uning iqtisodiy o‘rishga ta’siri hamda raqamli iqtisodiyot sharoitida rivojlanish tendensiyalari chuqur tahlil qilingan. Shuningdek, O‘zbekistonda AKT xizmatlari



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

bozori rivoji, eksport tarkibi va uning iqtisodiy o‘shishga ta’siri o‘rganilgan. AKT xizmatlari eksportining hozirgi holati baholanib, rivojlanishga to‘sqinlik qilayotgan omillar aniqlangan. Shuningdek, IT xizmatlar, startaplar, kadrlar, autsorsing, GovTech va SaaS yo‘nalishlari asosida eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** *IT xizmatlar eksporti, AKT xizmatlari, GovTech, SaaS, IT bozor, Eksport geografiyasi, elektron xizmatlar, tendensiyalar.*

Jahon xo‘jalik aloqalariga integratsiyalashuv jarayonida O‘zbekistonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) xizmatlari bozorini innovatsion yo‘nalishda rivojlantirish iqtisodiy o‘shishning barqarorligini ta‘minlash va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. So‘nggi yillarda AKT xizmatlari bozorida raqamli transformatsiya, IT xizmatlarining kengayishi hamda dasturiy mahsulotlar eksportining ortishi kuzatilmoqda, bu esa mamlakat eksport tarkibida yuqori qo‘shilgan qiymatga ega xizmatlar ulushining oshishiga olib kelmoqda.

Biroq, ushbu jarayonni samarali amalga oshirish uchun jamiyatning yetarli darajadagi raqamli savodxonligi va axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarining shakllangan bo‘lishi muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, axborot strategiyasiga zamonaviy va innovatsion yondashuvlarni joriy etish, AKT infratuzilmasini rivojlantirish hamda xalqaro IT bozorlariga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish talab etiladi.

O‘zbekistonning AKT xizmatlari bozori rivojlanish tendensiyalari va eksport tarkibi tahlili shuni ko‘rsatadiki, texnologik innovatsiyalar mamlakat yangi iqtisodiyotida ikki asosiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etmoqda.

*Birinchi*dan, IT sohasi o‘zining yuqori unumdorligi va tez rivojlanish sur‘atlari bilan iqtisodiy o‘shishga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatadi hamda xizmatlar eksporti



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

hajmining kengayishiga xizmat qiladi. O‘zbekistonda dasturiy ta’minot ishlab chiqish, IT-outsorsing va raqamli xizmatlar ulushining ortib borishi bu jarayonning yaqqol dalilidir.

*Ikkinchidan*, axborot texnologiyalarining iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga keng joriy etilishi ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarini tubdan o‘zgartirmoqda. Korxonalarda raqamlashtirish va avtomatlashtirish darajasining oshishi mehnat unumdorligini sezilarli darajada kuchaytirmoqda, resurslardan foydalanish esa yanada samarali shaklga o‘tmoqda. Ishlab chiqarish zanjirlarida raqamli boshqaruv tizimlarining qo‘llanilishi ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar o‘rtasidagi aloqalarni yaqinlashtirib, zaxiralarni optimallashtirish imkonini bermoqda. Bu esa iqtisodiyotda ortiqcha ishlab chiqarish xavfini kamaytirish va barqaror iqtisodiy muvozanatni ta’minlash yo‘lida muhim qadam hisoblanadi.

O‘zbekiston uchun raqamli transformatsiya sharoitida AKT xizmatlari bozorini rivojlantirish va uning eksport salohiyatini oshirish strategik ahamiyatga ega. So‘nggi yillarda mamlakatda IT xizmatlari, dasturiy ta’minot ishlab chiqish, IT-outsorsing va telekommunikatsiya xizmatlari jadal rivojlanmoqda. Ayniqsa, IT Park rezidentlarining ko‘payishi va startup ekotizimining kengayishi AKT xizmatlari eksportining o‘shishiga turtki bermoqda. Eksport tarkibida asosiy ulushni dasturiy ta’minot, IT-outsorsing, raqamli xizmatlar va texnik qo‘llab-quvvatlash xizmatlari egallaydi.

Raqamli transformatsiya jarayonida elektron bojxona tizimlari, savdo jarayonlarini raqamlashtirish va onlayn eksport platformalari eksport jarayonlarini soddalashtirib, xalqaro bozorga chiqish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Natijada O‘zbekiston AKT sektori mamlakat eksportining muhim va tez o‘sayotgan yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PF-157-sonli Farmonida IT sohasida faoliyat yuritayotgan mahalliy kompaniyalarni jahon



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

bozoriga olib chiqish, xalqaro ITbozorida faoliyat ko‘rsatuvchi xorijiy korxonalarni mamlakatimizga jalb qilish va ularning eksport faoliyatini yo‘lga qo‘yish va boshqa ko‘plab masalar belgilangan<sup>1</sup>. Shu sababli raqamli transformatsiyaning xalqaro savdoga ta’siri, O‘zbekiston uchun mavjud imkoniyatlar va duch kelinayotgan muammolar tahlil qilish hamda mamlakatning raqamli savdo infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish o‘ta dolzarb hisoblanadi.

O‘zbekistonning AKT xizmatlari bozori rivojlanish tendensiyalari va eksport tarkibi tahlili shuni ko‘rsatadiki, axborot texnologiyalarini iqtisodiyot va jamiyatning barcha sohalariga keng joriy etish bugungi kunda mamlakat iqtisodiy rivojlanishining eng muhim yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Raqamli transformatsiya jarayonida axborot va texnologik yuksalishlar o‘zaro chambarchas bog‘lanib, yagona innovatsion rivojlanish tizimini shakllantirmoqda. Bu esa AKT xizmatlari bozorining barqaror kengayishi, raqamli mahsulotlar va IT xizmatlari eksportining ortishi hamda ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarining sifat jihatidan yangilanishiga olib kelmoqda.

Shu bilan birga, iqtisodiyotni axborotlashtirish jarayonida asosiy e’tibor iqtisodiyot tarkibini diversifikatsiya qilishga, yuqori qo‘shilgan qiymatga ega bo‘lgan kapital sig‘imsiz tarmoqlarni, xususan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sektorini rivojlantirishga qaratilmoqda. O‘zbekistonda IT Park rezidentlari sonining ortishi, raqamli startaplar ekotizimining shakllanishi va IT xizmatlari eksportining kengayishi ushbu yo‘nalishning amaliy natijalarini ifodalaydi. Natijada AKT sohasi iqtisodiy o‘shishni tezlashtiruvchi va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshiruvchi strategik tarmoqqa aylanmoqda.

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.10.2024 yildagi PF-157-sonli “Raqamlashtirish sohasida eksport faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxonalarni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi Farmoni,



**1- jadval.**

**O‘zbekiston AKT xizmatlari bozori: rivojlanish va eksport tarkibi<sup>2</sup>**

<i>Yo‘nalish</i>	<i>Rivojlanish tendensiyalari</i>	<i>Eksport tarkibi (asosiy yo‘nalishlar)</i>	<i>Izoh</i>
<i>Bozorning umumiy rivoji</i>	IT-parklar, startaplar va raqamli iqtisodiyot jadal o‘smoqda	AKT xizmatlari eksporti (IT xizmatlar, dasturiy ta’minot)	Davlat qo‘llab-quvvatlashi kuchaygan, raqamli transformatsiya tezlashgan
<i>IT xizmatlar eksporti</i>	Xalqaro autsorsing (outsourcing) va IT xizmatlar hajmi oshmoqda	Dasturiy ta’minot ishlab chiqish, web/mobile xizmatlar	Yangi IT kompaniyalar global bozorga chiqmoqda
<i>Startup ekotizimi</i>	Innovatsion startaplar va IT Park rezidentlari ko‘paymoqda	Fintech, edtech, e-commerce yechimlari	Eksportga yo‘naltirilgan raqamli mahsulotlar ortmoqda
<i>Raqamli xizmatlar</i>	Elektron hukumat va raqamli	GovTech, SaaS xizmatlari	Ichki raqamlashtirish

<sup>2</sup> Muallif ishlanmasi



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

	platformalar kengaymoqda		eksport salohiyatini oshirmoqda
<b><i>Kadrlar va outsorsing</i></b>	IT mutaxassislar tayyorlash tizimi rivojlanmoqda	IT outsorsing xizmatlari (freelance, BPO)	Arzon va malakali ishchi kuchi eksportni qo‘llab- quvvatlaydi
<b><i>Eksport geografiyasi</i></b>	Yangi bozorlar (Yevropa, AQSh, MDH)ga chiqish kengaymoqda	IT xizmatlar global mijozlarga yo‘naltirilgan	Eksport diversifikatsiyasi kuchaymoqda
<b><i>Eksport tarkibining o‘zgarishi</i></b>	Xomashyo eksportidan xizmatlar eksportiga o‘tish	IT xizmatlar ulushi oshib bormoqda	Raqamli iqtisodiyot ulushi ortmoqda

O‘zbekistonning AKT xizmatlari bozori rivojlanish tendensiyalari va eksport tarkibi tahlili shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda mamlakat iqtisodiyoti ham rivojlangan davlatlarga xos bo‘lgan zamonaviy “aqli o‘sish” modeliga bosqichma-bosqich o‘tish jarayonini boshdan kechirmoqda. Bu jarayon axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, elektron xizmatlar, resurs tejankor va innovatsion texnologiyalarga asoslangan iqtisodiy rivojlanish yo‘nalishining kuchayishi bilan tavsiflanadi.

AKT xizmatlari bozorining rivojlanish tendensiyalari quyidagicha<sup>3</sup>:

<sup>3</sup> <https://evu.uz/magazine/osobennosti-razvitiya-ryinka-ikt-v-zapadnyih-stranah.html>



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

- yirik korporatsiyalar jahon axborot xizmatlari bozorida yetakchi rol o‘ynaydi, chunki ular nafaqat axborotni qayta ishlash bilan shug‘ullanadi, balki axborot ishlarining butun majmuasini bajaradi va iqtisodiyotga, hatto jamiyatga ta’sir ko‘rsatadi;

- O‘zbekiston iqtisodiyotida ham turli tarmoqlarni axborotlashtirish va kompyuterlashtirish jarayoni sezilarli darajada rivojlanib bormoqda. Natijada axborot komponenti deyarli har bir iqtisodiy bitimda muhim o‘rin egallamoqda. Bu holat mamlakat ichki bozorida ham axborot xizmatlari narxining shakllanishiga bilvosita ta’sir ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston tashqi AKT xizmatlari savdosining rivojlanishida eksport tarkibi quyidagi asosiy tendensiyalarni ajratib ko‘rsatadi:

1. Geografik diversifikatsiya: An’anaviy savdo hamkorlari (MDH mamlakatlari) bilan bir qatorda Xitoy, Turkiya, Janubiy Koreya hamda Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan AKT xizmatlari eksporti bo‘yicha savdo aloqalarining faollashuvi kuzatilmoqda. Mazkur jarayon xalqaro bozordagi geosiyosiy va iqtisodiy xatarlarga nisbatan chidamlilikni oshirishga xizmat qiladi.

2. Jahon savdo tashkilotiga (JST) a’zo bo‘lish jarayoni: doirasida hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan faol ishlar tashqi AKT xizmatlari eksporti savdo rejimini xalqaro normalarga to‘liq moslashtirish, tarif va notarif cheklovlarni bosqichma-bosqich kamaytirishni ko‘zda tutadi. Bu esa mamlakatning xalqaro iqtisodiy integratsiyasini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

3. Logistika tizimini modernizatsiya qilish: Dengizga chiqish imkoniyati cheklangan mamlakat sifatida transport yo‘laklarini diversifikatsiya qilish, temir yo‘l va avtomobil yo‘llari infratuzilmasini rivojlantirish (jumladan, “Xitoy–Qirg‘iziston –



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

O‘zbekiston” yo‘lagi) AKT xizmatlari eksporti xarajatlarini kamaytirishda muhim tendensiya hisoblanadi.

4. Elektron tijoratdan foydalanish: Xalqaro B2B va B2C platformalari orqali eksportni amalga oshirish hajmi o‘shib bormoqda, bu kichik va o‘rta biznes subyektlarining to‘g‘ridan - to‘g‘ri xalqaro bozorga chiqishiga imkon yaratmoqda.

O‘zbekistonda AKT sohasining kengayishi investitsiya jarayonlarini raqamlashtirish, davlat va xususiy sektor boshqaruvida zamonaviy axborot tizimlarini joriy etish hamda iqtisodiyot tuzilmasini bosqichma-bosqich modernizatsiya qilishga xizmat qilmoqda. Xususan, IT xizmatlari, dasturiy ta‘minot ishlab chiqish va raqamli platformalar ulushining ortishi iqtisodiyotda yuqori intellektual va axborot sig‘imiga ega tarmoqlarning shakllanishini tezlashtirmoqda.

Shu bilan birga, iqtisodiyotni axborotlashtirish jarayonida ilmiy sig‘imli va resurs tejamkor texnologiyalarga asoslangan tarkibiy qayta qurish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa O‘zbekiston AKT xizmatlari bozorining eksport salohiyatini kengaytirish, xalqaro raqamli iqtisodiyotga integratsiyalashuvni kuchaytirish hamda barqaror iqtisodiy o‘shishga erishishda asosiy omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

### **Xulosa**

O‘zbekistonda AKT xizmatlari bozori jadal rivojlanib, raqamli transformatsiya iqtisodiy o‘shish va eksportni oshirishning muhim omiliga aylanmoqda. IT xizmatlar, dasturiy ta‘minot va autsorsing hajmi ortib, yuqori qo‘shilgan qiymatli xizmatlar ulushi kengaymoqda. Raqamlashtirish boshqa tarmoqlarda ham samaradorlikni oshirib, ishlab chiqarish va boshqaruvni modernizatsiya qilmoqda. Shu bilan birga, infratuzilmani rivojlantirish, raqamli savodxonlikni oshirish va xalqaro bozorlarga chiqishni kengaytirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Natijada AKT sohasi milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini kuchaytiruvchi strategik yo‘nalishga aylanmoqda.



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Eshqulova Nasiba Normo'minovna,. (2025). Raqamli transformatsiya shoritida xalqaro savdoning rivojlanishi yo'nalishlari. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 5(3), 512–517. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15054721>.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.10.2024 yildagi PF-157-sonli “Raqamlashtirish sohasida eksport faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxonalarni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi Farmoni.
3. Baldwin R. E. Buyuk konvergensiya: axborot texnologiyalari va yangi globallashtirish. Garvard universiteti nashriyotining Belknap nashriyoti, 2016-yil.
4. Krugman P. Raqobat va xalqaro savdo nazariyasi. – Nyu-York: MIT Press, 1991.
5. Porter M. Millatlarning raqobat ustunligi. – London: Macmillan, 1990.
6. Rikardo D. Siyosiy iqtisod va soliqqa tortish asoslari haqida. – London: Jon Myurrey, 1817.
7. Mill J. S. Siyosiy iqtisod asoslari. – London: Longmans, Green & Co., 1848.